



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSİYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUV INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	416
Xamidova Soro	
Toshpulatova Laylo	
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....	423
Mariya Bekimbetova	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi	
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	431
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	443
Safarova Yulduz Abbos qizi	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIYAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH	448
Xusanov Shuxrat Burxonovich	



AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIYAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH

Xusanov Shuxrat Burxonovich

Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi, auditor

Annotatsiya. Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish ularning ishonchliligi, sifati, shaffofligi va haqqoniyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda auditorlik kasbining, xususan, auditorlar va auditorlik tashkilotlarining xolisligi va obro'siga jiddiy xavf tug'diradi. Tadqiqotda moliyaviy hisobotlarni qasddan buzib ko'rsatish holatlari hamda moliyaviy firibgarlikning mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, firibgarlik oqibatida yuzaga keladigan jiddiy buzib ko'rsatishlarni aniqlashda Auditning xalqaro standartlari talablari va tavsiyalarini qo'llash tartibi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotni soxtalashtirish, moliyaviy firibgarlik, Auditning xalqaro standartlari, auditorlik tekshiruvi, audit riski, qasddan buzib ko'rsatish, ichki nazorat, auditorlik dalillari, risklarni baholash, faoliyatning uzluksizligi.

Аннотация. Фальсификация финансовой отчётности снижает её достоверность, качество, прозрачность и объективность, а также создаёт серьёзные риски для независимости, профессиональной репутации и объективности аудиторов и аудиторских организаций. В исследовании рассмотрены сущность преднамеренного искажения финансовой отчётности и содержание финансового мошенничества. Особое внимание уделено порядку применения требований и рекомендаций Международных стандартов аудита при выявлении существенных искажений, возникающих вследствие мошенничества.

Ключевые слова: финансовая отчётность, фальсификация финансовой отчётности, финансовое мошенничество, Международные стандарты аудита, аудит, аудиторский риск, преднамеренное искажение, внутренний контроль, аудиторские доказательства, оценка рисков, непрерывность деятельности.

Abstract. The falsification of financial statements undermines their reliability, quality, transparency, and faithful representation while posing significant threats to the independence, objectivity, and professional reputation of auditors and audit firms. The study examines the nature of intentional misstatements in financial reporting and the concept of financial fraud. Particular attention is given to the application of the requirements and guidance of the International Standards on Auditing in identifying material misstatements resulting from fraudulent activities.

Keywords: financial statements, financial statement fraud, financial reporting falsification, financial fraud, International Standards on Auditing, audit, audit risk, intentional misstatement, internal control, audit evidence, risk assessment, going concern.

KIRISH

Bozor munosabatlarining zamonaviy rivojlanishi, investitsiyaviy faollikning ortishi va biznes shaffofligiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining ishonchliligiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Moliyaviy hisobot mulkdorlar, investorlar, kreditorlar va davlat organlari uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq, amaliyotda hisobot ma'lumotlarini qasddan buzib ko'rsatish holatlari ham uchrab turadi. Ilmiy adabiyotlarda va professional muhitda bunday holatlar moliyaviy hisobotni soxtalashtirish deb ataladi. Ushbu hodisaning mazmuni, mohiyati va turlarini chuqur anglash auditorlik tekshiruvlarida ularni aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur bo'limda alohida olimlarning ilmiy qarashlari emas, balki ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan jahon ilmiy maktablari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqotlar



doirasida ushbu masala bo'yicha shakllangan to'rtta ilmiy maktab aniqlangan. Ularga Amerika, Yevropa, Rossiya va O'zbekiston ilmiy maktablarini kiritish mumkin.

AQShda firibgarlikka qarshi kurash sohasidagi dunyodagi eng yirik va nufuzli professional tashkilot – Firibgarlikka qarshi kurash bo'yicha sertifikatlangan ekspertlar uyushmasi (ACFE) faoliyat yuritadi. Mazkur tashkilot butun dunyoda keng qo'llaniladigan **Fraud Tree** (Firibgarlik daraxti) – iqtisodiy jinoyatlar tasnifini ishlab chiqqan [1].

Yevropa modeli (OLAF va Yevropa Komissiyasi standartlari doirasida) to'rtta asosiy ustunga tayanadi: **Oldini olish (Prevention) → Aniqlash (Detection) → Tergov (Investigation) → Zararni qoplash va sanksiyalarni qo'llash (Sanctions/Recovery)** [2].

Rossiya amaliyotida firibgarlikning oldini olish tizimi uch bosqichga asoslanadi: qat'iy nazorat, audit va jinoiy javobgarlik. Ushbu yondashuv xalqaro standartlar (XAS, MHXS) talablarini milliy qonunchilik normalari bilan uyg'unlashtirishga asoslanib, rahbariyat tomonidan moliyaviy axborotning ishonchliligini ta'minlash va uni muntazam nazorat qilishga alohida e'tibor qaratadi [3].

Moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatishning oldini olish bo'yicha O'zbekiston amaliyoti Auditning xalqaro standartlari (XAS) talablari hamda yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiy auditorlik tekshiruvlarini joriy etishga tayanadi. Mazkur yondashuvning asosiy xususiyati ichki nazorat tizimiga qo'yiladigan qat'iy talablarni soliq shaffoqligini ta'minlash hamda noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish choralari bilan uyg'unlashtirishdan iborat [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida mantiqiy mushohada, nazariy umumlashtirish, tahlil va sintez, taqqoslash, shuningdek, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korporativ muhitda moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish muammosi zamonaviy audit nazariyasi va amaliyotida markaziy o'rinni egallaydi. Moliya bozorlarining globallashuvi, biznes modellarining murakkablashuvi hamda samaradorlik ko'rsatkichlariga nisbatan boshqaruv bosimini kuchayishi hisob ma'lumotlarini qasddan buzib ko'rsatish xavfini oshirmoqda. Bunday sharoitda Auditning xalqaro standartlari va ishonchlilikni tasdiqlash bo'yicha xalqaro standartlar kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan Auditning xalqaro standartlari (XAS) muhim tartibga soluvchi rolni bajaradi. Ushbu standartlar firibgarlik risklarini aniqlash va baholashning tizimli metodologiyasini shakllantiradi.

Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish masalalari ko'rib chiqilgan XASlar o'rtasida quyidagi mantiqiy bog'liqlik mavjud:

- **240-son XAS** [5] – firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari;
- **315-son XAS** [6] – risklarni aniqlash va baholash;
- **330-son XAS** [7] – aniqlangan risklarga nisbatan auditorlik tartib-taomillari;
- **450-son XAS** [8] – buzib ko'rsatishlar darajasini baholash;
- **500-son XAS** [9], **505-son XAS** [10], **520-son XAS** [11], **540-son XAS** [12], **550-son XAS** [13], **580-son XAS** [14] – auditorlik dalillarini olish;
- **570-son XAS** [15] – oqibatlarini tahlil qilish.

Firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat **240-son “Moliyaviy hisobot auditida firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari” nomli XAS** hisoblanadi. Ushbu standart xato va firibgarlik o'rtasidagi konseptual farqlarni belgilab, firibgarlikni rahbariyat, korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar, xodimlar yoki uchinchi shaxslarning moliyaviy ma'lumotlarni buzib ko'rsatish orqali noqonuniy foyda olishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakati sifatida tavsiflaydi.

Moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish kontekstida **240-son XAS** firibgarlikning ikkita asosiy shaklini ajratib ko'rsatadi: **(1)** moliyaviy hisobotlarni tuzish bilan bog'liq firibgarlik va **(2)** aktivlarni o'zlashtirish. Birinchi shakl ommaviy moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga eng katta tahdid soladi hamda hisob yozuvlarini manipulyatsiya qilish, baholash ko'rsatkichlarini qasddan buzib ko'rsatish, muhim ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, soxta xo'jalik muomalalarini aks ettirish, tan olish va baholash tamoyillarini qasddan buzishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi shakl esa, garchi boshqa tajovuz obyektiga ega bo'lsa-da, hisobotlarda zararlarni yashirish yoki majburiyatlarni kamaytirish orqali ham o'z aksini topishi mumkin.

240-son XASga muvofiq, auditor butun audit jarayoni davomida mijoz bilan avvalgi hamkorlik tajribasidan qat'i nazar, professional skeptitsizmni saqlab qolishi lozim. Rahbariyat tomonidan ichki nazorat tizimini chetlab o'tish xavfiga alohida e'tibor qaratiladi, chunki boshqaruv darajasidagi shaxslar hisob-kitob jarayonlariga



aralashish, yozuvlarni o'zgartirish hamda xodimlarga bosim o'tkazish imkoniyatiga ega. Shu munosabat bilan standart tuzatishlar jurnalini tahlil qilish, hisob baholarining asoslilikini baholash hamda rahbariyat mulohazalarini retrospektiv tahlil qilishni o'z ichiga olgan maxsus auditorlik tartib-taomillarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

315-son “Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik subyekti va uning muhitini tushunish asosida aniqlash hamda baholash” nomli XAS auditoridan mijozning biznesi, ichki nazorat tizimi, tarmoq xususiyatlari va iqtisodiy omillari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lishni talab qiladi. Ushbu bilimlarga asoslanib, auditor xatolar yoki firibgarlik oqibatida muhim buzib ko'rsatishlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashi zarur.

Mazkur standart quyidagilarni hujjatlashtirishni talab qiladi:

- axborot tizimi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonlarini tushunish;
- ichki nazorat tizimi komponentlarini baholash;
- risklarni aniqlash va tasniflash;
- aniqlangan risklar hamda auditorning kutilayotgan javob choralari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash.

315-son XAS shuningdek, auditorlik tartib-taomillarini rejalashtirish va amalga oshirishda alohida e'tibor talab qiladigan **“muhim risklar”** tushunchasini belgilaydi.

Yangilangan tahrirda ushbu standart tavakkalchilikka asoslangan yondashuvni yanada kuchaytirib, biznes muhiti, ichki nazorat tizimi va firibgarlik ehtimoliga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tushunishni talab qiladi. **315-son XAS** auditorga muhim risklarni aniqlash majburiyatini yuklaydi. Ularning orasida tushumni tan olish bilan bog'liq firibgarlik riski **apriori** muhim risk sifatida e'tirof etiladi. Shu tariqa, standart qalbakilashtirish ehtimoli yuqori bo'lgan sohalarni baholash uchun tahliliy asos yaratadi.

Baholangan tavakkalchiliklarni amaliyotda hisobga olish **330-son “Auditorning baholangan tavakkalchiliklarga javob harakatlari” nomli XAS** bilan tartibga solinadi. Ushbu standart auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, muddati va hajmini aniqlangan tavakkalchilik darajasiga moslashtirishni talab qiladi. Standart auditor moliyaviy hisobot darajasida hamda tasdiqlash darajasida aniqlangan tavakkalchiliklarga javoban yetarli va tegishli auditorlik dalillarini olishni ta'minlaydigan auditorlik tartib-taomillarini qanday ishlab chiqishi va amalga oshirishi lozimligini belgilaydi.

330-son XAS auditoridan moliyaviy hisobot darajasidagi umumiy javob choralari hamda tasdiqlar darajasidagi aniq auditorlik tartib-taomillarini ularning xususiyati, muddati va hajmiga qarab ishlab chiqishni talab qiladi. Auditor nazorat vositalari testlari bilan mohiyat bo'yicha auditorlik tartib-taomillarini birgalikda qo'llashi mumkin. Bunda kasbiy skeptitsizmni saqlash hamda baholangan tavakkalchiliklar bilan amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillari o'rtasidagi bog'liqlikni hujjatlashtirish muhim hisoblanadi. Qalbakilashtirish ehtimoli yuqori bo'lgan hollarda auditor test o'tkazishning kengaytirilgan tartib-taomillarini qo'llashi, tanlash hajmini oshirishi, oldindan kutilmagan elementlardan foydalanishi hamda mustaqil tasdiqlar olish ustidan nazoratni kuchaytirishi lozim. Shu tariqa, **330-son XAS** **240-son XAS** va **315-son XAS**da belgilangan tamoyillarning amaliy jihatdan izchil amalga oshirilishini ta'minlaydi.

instrumental amalga oshirishni ta'minlaydi.

“Audit jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishlarni baholash” deb nomlangan 450-son XAS auditor ishining ikkita muhim jihatini tavsiflaydi:

- aniqlangan buzib ko'rsatishlarning auditor fikriga ta'siri;
- tuzatilmagan buzib ko'rsatishlarning, agar ular mavjud bo'lsa, kompaniyaning moliyaviy hisobotlariga ta'siri.

Ushbu standart “buzib ko'rsatish” atamasini moliyaviy hisobot bandlarining haqiqiy va talab etiladigan miqdori, tasnifi, taqdimoti yoki oshkor etilishi o'rtasidagi farq sifatida belgilaydi.

Professor A.E. Suglobovning yozishicha, 450-son XAS “muhim bo'lmagan buzib ko'rsatishlar” tushunchasidan farq qiluvchi “aniq ahamiyatsiz buzib ko'rsatishlar” nomli yangi tushunchani ham amaliyotga kiritgan. Agar buzib ko'rsatishlar auditor tomonidan ularning yuzaga kelish miqdori, xususiyati yoki sharoitlariga ko'ra muhimlik darajasidan oshmagan deb baholansa, ular “aniq ahamiyatsiz” hisoblanadi [16].

450-son XASning “Ilova va boshqa tushuntirish materiallari” nomli bo'limida buzib ko'rsatishlarning yuzaga kelish sabablari tushuntirilgan, aniqlangan buzib ko'rsatishlarni to'plash va ko'rib chiqish bo'yicha tavsiyalar, ular haqida xabar berish va ularni tuzatish tartiblari, tuzatilmagan buzib ko'rsatishlarning ta'sirini baholash uslubiyoti, yozma tushuntirish namunasi hamda tuzatilmagan soxtalashtirish holatlarini hujjatlashtirishda e'tiborga olinadigan jihatlar ro'yxati keltirilgan.

Firibgarlik xavfi mavjud sharoitda tegishli va yetarli auditorlik dalillarini olish “Auditorlik dalillari” nomli 500-son XAS bilan tartibga solinadi. Standart axborot manbalarining ishonchlilikini baholash zarurligini ta'kidlaydi hamda qasddan buzib ko'rsatish mavjudligiga shubha tug'ilganda yanada ishonchli dalillardan foydalanishni belgilaydi. Standart bevosita mustaqil tashqi tomonlardan, masalan, banklar, mijozlar, yetkazib beruvchilar yoki yuridik maslahatchilardan olinadigan ma'lumotlar orqali auditorlik dalillarining ishonchlilikini oshirishga qaratilgan. Bunday tasdiqlar auditorga, ayniqsa, debitorlik va kreditorlik qarzlari, pul mablag'lari hamda kafolat



majburiyatlari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar, firibgarlik yoki xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Qo'shimcha vosita sifatida debitorlik qarzlari, majburiyatlar va boshqa muhim moddalar bo'yicha tashqi tasdiqlash tartibini nazarda tutuvchi "Tashqi tasdiqnomalar" deb nomlangan 505-son XAS qo'llaniladi. Ushbu mexanizm soxta operatsiyalar va aktivlarni sun'iy shakllantirish xavfini kamaytiradi. 505-son XAS auditoridan ma'lumotni tanlash va so'rovni tuzishdan boshlab, uni yuborish hamda javob olishgacha bo'lgan tasdiqlash jarayoni ustidan nazoratni saqlab qolishni talab qiladi. Manbaning mustaqilligi muhim ahamiyatga ega: javoblar mijozning ishtirokisiz to'g'ridan-to'g'ri auditorga kelib tushishi kerak. Agar javob olinmasa, standart muqobil auditorlik tartib-taomillarini belgilaydi. Tashqi tasdiqlar ichki ma'lumotlarga nisbatan ishonchliroq hisoblanadi, biroq standart mavjud xavflarni ham hisobga oladi, masalan, javoblarning soxtalashtirilishi yoki rahbariyat tomonidan cheklovlar qo'yilishi. Auditor olingan ma'lumotlarning haqiqiyliigi va to'liqligini baholashi, shuningdek, barcha bosqichlarni hujjatlashtirishi shart.

Umumiy holatlardan farq qiluvchi vaziyatlarni aniqlashda "Tahliliy tartib-taomillar" deb nomlangan 520-son XAS [17] bilan tartibga solinadigan tahliliy tartib-taomillar muhim rol o'ynaydi. Gorizontaal, vertikal va koeffitsiyentli tahlilni qo'llash foyda va pul oqimlari dinamikasidagi nomuvofiqliklarni, marjinallikning g'ayritabiiy o'zgarishlarini hamda hisobot davri oxiridagi aylanmalarning g'ayrioddiy tebranishlarini aniqlash imkonini beradi. Tahliliy tartib-taomillar moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni taqqoslashda ayniqsa samarali bo'lib, tushumni sun'iy ravishda oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish holatlarini aniqlash imkoniyatini kengaytiradi. 520-son XAS auditorlarga moliyaviy ma'lumotlarning ishonchililigini baholash vositasi sifatida tahliliy amallardan foydalanishni belgilaydi. Ushbu tartib-taomillar auditni rejalashtirish, o'tkazish va yakunlash bosqichlarida hisobotdagi buzib ko'rsatishlarni ifodalovchi anomalialar, tendensiyalar va nomuvofiqliklarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Standart tahliliy amallar auditorning moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi taxminlariga asoslanishini talab qiladi. Tafvutlar aniqlanganda auditor ularning sabablarini, shu jumladan, rahbariyatdan tushuntirishlar olish yoki qo'shimcha auditorlik testlarini o'tkazish orqali o'rganishi shart. 520-son XAS auditorning professional skeptitsizmini mustahkamlaydi hamda nazorat vositalarini sinash va batafsil tekshiruvlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali audit samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur standartning qo'llanilishi xalqaro miqyosda auditorlik xulosalarining taqqoslanuvchanligi va sifatini ta'minlashga yordam beradi.

540-son XAS "Buxgalteriya baholashlari auditori"ga ko'ra, buxgalteriya baholari (zaxiralalar, amortizatsiya, haqqoniy qiymat) eng oson soxtalashtirilishi mumkin bo'lgan subyektiv mulohazalar hisoblanadi. Ularni manipulyatsiya qilish orqali insofsiz menejerlar rasmiy qoidalarni buzmaganda zararlarni yashirishlari yoki foydani oshirib ko'rsatishlari mumkin. Ushbu baholarni tahlil qilish sun'iy buzib ko'rsatishlarni aniqlash imkonini beradi.

Baholash orqali buzib ko'rsatishning tez-tez uchraydigan sxemalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Qadrsizlanish uchun zaxiralarni kamaytirish. Umidsiz qarzarlar yoki sotilmay qolgan tovarlarni e'tiborga olmaslik. Bunda zaxiralarni shakllantirish xarajatlarning kamayishi fonida debitorlik qarzlarning keskin o'sishi kuzatiladi.

Amortizatsiya muddatlarini asossiz o'zgartirish. Joriy xarajatlarni sun'iy ravishda kamaytirish va foydani oshirish maqsadida asosiy vositalarning xizmat muddatini asossiz ravishda uzaytirish.

Haqqoniy qiymatni manipulyatsiya qilish. Aktivlarni, ayniqsa, ular uchun faol bozor mavjud bo'lmagan hollarda, oshirilgan qiymatda baholash.

"Bog'liq tomonlar" nomli 550-son XASga ko'ra, bog'liq tomonlar auditori firibgarlikning oldini olishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U sun'iy ravishda yaratilgan bitimlarni, foydani oshirib ko'rsatish va zararlarni yashirish holatlarini aniqlash orqali investorlar hamda kreditorlarga kompaniyaning haqiqiy moliyaviy holatini baholash imkonini beradi. Bog'liq tomonlar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar firibgarlik xavfini oshirishi bilan birga, moliyaviy hisobotning haqqoniy taqdim etilmasligi bilan bog'liq xatolar xavfini ham kuchaytiradi. Mazkur standartda tashkilot va uning bog'liq tomonlari o'rtasidagi munosabatlar, xo'jalik muomalalari yoki qoldiqlarni tegishli tarzda hisobga olish hamda oshkor etishdagi kamchiliklar tufayli yuzaga keladigan muhim buzib ko'rsatishlar xavfini aniqlash, baholash va ularga javob berishga qaratilgan auditorlik tartib-taomillari bayon etilgan. Ularga alohida e'tibor qaratilishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Bitimlar mustaqilligining yo'qligi. Bog'liq tomonlar o'rtasidagi bitimlar har doim ham bozor sharoitlarida amalga oshirilmaydi (masalan, aktivlarni pasaytirilgan yoki oshirilgan narxlarda sotish).

"Qog'oz"da foyda yaratish. Kompaniyalar daromadni sun'iy ravishda oshirish maqsadida filiallarga soxta sotuvlarni amalga oshirishlari mumkin.

Majburiyat va zararlarni yashirish. Zarar keltiruvchi operatsiyalar yoki qarzarlar bosh kompaniyaning hisobotlariga ta'sir ko'rsatmasligi uchun yashirin sho'ba korxonalariga ("maxsus maqsadli tashkilotlar" (MMT)) o'tkazilishi mumkin.



Zaxiralarni manipulyatsiya qilish. Kamomadlarni yashirish yoki qoldiqlarni oshirish maqsadida audit arafasida bog'liq kompaniyalar o'rtasida tovarlarni ko'chirish holatlari kuzatilishi mumkin.

Moliyaviy qiyinchiliklarni yashirish kontekstida "Faoliyatning uzluksizligi" nomli 570-son XAS alohida ahamiyatga ega. Hisobotni soxtalashtirish ko'pincha tashkilotning inqirozli holatini niqoblash vositasi sifatida qo'llaniladi. 570-son XAS auditorga rahbariyatning faoliyatni davom ettirish qobiliyati to'g'risidagi taxminlarining asosligini baholash, pul oqimlari prognozlarini tahlil qilish hamda moliyaviy barqarorlik to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan buzib ko'rsatish belgilarini aniqlash majburiyatini yuklaydi. Standart moliyaviy hisobotning shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U auditor kompaniyaning faoliyatini davom ettirish qobiliyatiga jiddiy shubha mavjud bo'lgan hollarda xavflarni qanday aniqlashi va ular to'g'risida qanday xabar berishi lozimligini belgilaydi.

570-son XAS moliyaviy hisobotni tayyorlashda qo'llaniladigan faoliyatning uzluksizligi tamoyilining qo'llanilishiga oid yetarli auditorlik dalillarini olishda auditorga ko'maklashishga qaratilgan. Standart buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan tamoyillari asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarning barcha auditorlik tekshiruvlariga nisbatan qo'llaniladi.

570-son XAS auditordan quyidagilarni talab qiladi:

- rahbariyat moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda faoliyatning uzluksizligi tamoyilidan foydalanganligini baholash;

- kelgusidagi harakatlar bo'yicha rahbariyat rejalarini tahlil qilish;
- faoliyatning uzluksizligiga sezilarli shubha tug'diruvchi voqealar yoki sharoitlarni aniqlash;
- olingan auditorlik dalillari va mavjud noaniqliklarning xususiyatini hisobga olgan holda xulosa shakllantirish.

Agar jiddiy shubhalar aniqlansa, auditor bu holatni o'z auditorlik xulosasida tushuntirish xatboshisi yoki fikrni modifikatsiya qilish orqali aks ettirishi lozim.

XASda firibgarlikni tahlil qilishning konseptual asosi bosim, imkoniyat va ratsionalizatsiyani o'z ichiga olgan "firibgarlik uchburchagi" modeli hisoblanadi. Ushbu model soxtalashtirishning motivatsion va tashkiliy shart-sharoitlarini tushuntiradi hamda xavf omillarini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mazkur model kompetentlik komponenti bilan to'ldirilib, kengaytirilgan "firibgarlik rombi" tushunchasi shakllantirilgan. XASlarda ushbu element bevosita tartibga solinmagan bo'lsa-da, uni hisobga olish professional skeptitsizm tamoyiliga mos keladi hamda auditorlik tartib-taomillarining tahliliy chuqurligini oshiradi.

Standartlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish soxtalashtirishga qarshi kurashishni tartibga solishning tizimli xususiyatga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi. XAS 315 xavflarni aniqlashni, XAS 240 ularni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilishni, XAS 330 javob choralari ishlab chiqishni, XAS 500 va XAS 505 auditorlik dalillari bazasini shakllantirishni, XAS 570 hamda XAS 250 esa aniqlangan buzib ko'rsatishlarning oqibatlarini baholashni ta'minlaydi. Shunday qilib, XAS tahliliy, protsessual va isbotlovchi mexanizmlar integratsiyasiga asoslangan auditorlik javobining ko'p bosqichli modelini shakllantiradi.

Ta'kidlash joizki, XASga muvofiq auditor mutlaq emas, balki oqilona ishonchni ta'minlaydi. Tanlab tekshirishning cheklanganligi, til birlashtirish ehtimoli hamda boshqaruvning aralashuvi kabi omillar obyektiv ravishda soxtalashtirish holatlarini to'liq aniqlash imkoniyatini cheklaydi. Shunga qaramay, standartlar auditorning faol professional pozitsiyasi tamoyilini mustahkamlaydi hamda unga professional mulohaza va axloqiy talablarni hisobga olgan holda aniqlangan firibgarlik belgilari yuzasidan tegishli choralarni ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Qonun hujjatlari talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda auditor moliyaviy hisobotga me'yoriy talablarning buzilishi ta'sirini baholash tartibini hamda korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarni xabardor qilish majburiyatlarini belgilovchi "Moliyaviy hisobotlar auditida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni e'tiborga olish" nomli 250-son XAS [18] qoidalariga amal qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, Auditning xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirishga qarshi kurashishning kompleks me'yoriy asosini shakllantiradi. Ular firibgarlikning tabiati to'g'risidagi konseptual qoidalarni, auditning tavakkalchilikka yo'naltirilgan metodologiyasini hamda auditorlik dalillarini olishning protsessual vositalarini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur standartlarning amaliyotda izchil qo'llanilishi moliyaviy axborotning shaffofligini oshirish, manfaatdor foydalanuvchilarning ishonchini mustahkamlash hamda global iqtisodiyot sharoitida mustaqil audit institutining yanada samarali rivojlanishini ta'minlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.acfe.com/>
2. https://commission.europa.eu/topics/fraud-prevention_en
3. Ваккер К.М. и др. Мошенничество в бухгалтерском учете: виды, методы и меры предотвращения // Журнал *Инновационная экономика: информация, аналитика, прогнозы*. – 2026. – № 1. <https://cyberleninka.ru/article/n/moshennichestvo-v-buhgalterskom-uchete-ka-metody-i-mery-predotvrasheniya>.
4. https://eurasiangroup.org/files/uploads/files/MER_Uzbekistan_2022_rus.pdf
5. XAS 240. «Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditorning majburiyatlari». <https://www.imv.uz/>
6. XAS 315. «Muhim buzib ko'rsatishlar risklarini tadbirkorlik subyekti va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash». <https://www.imv.uz/>
7. XAS 330. «Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari». <https://www.imv.uz/>
8. XAS 450. «Audit jarayonida aniqlangan buzib ko'rsatishlarni baholash». <https://www.imv.uz/>
9. XAS 500. «Auditorlik dalillari». <https://www.imv.uz/>
10. XAS 505. «Tashqi tasdiqnomalar». <https://www.imv.uz/>
11. XAS 520. «Tahliliy tartib-taomillar». <https://www.imv.uz/>
12. XAS 540. «Buxgalteriya baholashlari audit». <https://www.imv.uz/>
13. XAS 550. «Bog'liq tomonlar». <https://www.imv.uz/>
14. XAS 580. «Rahbariyatning yozma bayonotlari». <https://www.imv.uz/>
15. XAS 570. «Faoliyatning uzluksizligi to'g'risidagi faraz». <https://www.imv.uz/>
16. Суглобов А.Э. Оценка искажений, выявленных в ходе аудита. MSA 450 // Журнал *Международный бухгалтерский учет*. – 2011. – № 46 (196). <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-iskazheniy-vyyavlennyyh-v-hode-audita-mejdunarodnyy-standart-audita-450>
17. XAS 520. «Tahliliy tartib-taomillar». <https://www.imv.uz/>
18. XAS 250. «Moliyaviy hisobotlar auditida qonunlar va me'yoriy hujjatlarni e'tiborga olish». <https://www.imv.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>